



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hamza Allambergenov ¹

¹ Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

E-mail: hamza-kamal@mail.ru

tel: 90 592 41 35

QADIMGI TURKIY ADABIYOTDA HO'KIZ TIMSOLI BILAN BOG'LIQ TOTEMISTIK MIFLAR

Annotatsiya: Maqolada ajdodlarimizning olamni anglash jarayonidagi ho'kiz timsoli bilan bog'liq mifologik tasavvurlari tahlil etilgan. Qadimgi turkiy mifologiyadagi Qayumars, Erklik xon to'g'risidagi, shuningdek, Eron mifologiyasidagi ho'kiz timsolining ifoda xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: ho'kiz timsoli, Abu Rayhon Beruniy, Qayumars, „Avesto“, N.Mallayev, Erklik xon obrazi, „Oltun yorug‘“, totemistik miflar.

ТОТЕМИСТИЧЕСКИЕ МИФЫ, СВЯЗАННЫЕ С ИЗОБРАЖЕНИЕМ БЫКА В ДРЕВНЕЙ ТЮРКСКОЙ МИФОЛОГИИ

Аннотация: В статье анализируются мифологические представления наших предков, связанные с образом быка в процессе познания мира. Научно проанализированы выразительные черты Каюмарса и Эрклик-хана в

древнетюркской мифологии, а также выражение быка в иранской мифологии.

Ключевые слова: образ быка, Абу Райхон Беруни, Каюмарс, «Авесто», Н. Маллаев, образ Эрклик хана, «Олтун ёруг», тотемистические мифы.

TOTEMISTIC MYTHS RELATED TO THE IMAGE OF THE BULL IN ANCIENT TURKISH MYTHOLOGY

Annotation: *The article analyzes the mythological ideas of our ancestors about the image of the bull in the process of understanding the world. The expressive features of Qayumars and Erklik Khan in ancient Turkic mythology, as well as the expression of the ox in Iranian mythology, are scientifically analyzed.*

Keywords: *the image of a bull, Abu Rayhon Beruni, Qayumars, “Avesto”, N.Mallayev, the image of Erklik khan, “Golden light”, totemistic myths.*

Kirish (Introduction). Insoniyat azaldan tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo’lgan. Ayniqsa, ibtidoiy va qadimgi davrlardagi insoniyatning tafakkuri, dunyoqarashi tarzida, olamni anglash mezonida o’ziga xoslik bor. Bu o’ziga xoslik ma’lum qonuniyatga tayanadi. Qonuniyat shundan iboratki, inson barcha tasavvurlarini tashqi hodisalardan olgan. Ammo buni ongli ravishda qilmagan. Bu hodisani tushunish va anglash uchun, tabiat va tabiiy hodisalarga o’z munosabatini bildirish va buni tabiiy qonuniyat deb qarash sabab bo’lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Turkiy xalqlar folklori va yozma adabiyoti, shuningdek, tasviriy, amaliy san’at asarlaridagi g’ayritabiiy qiyofali timsollar to’g’risida o’zbek va jahon folklorshunosligida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, jahon ilm-fanida J.Frezer, O.M.Freydenberg, V.Y.Propp, E.M.Meletinskiy, V.N.Toporov, I.V.Stebleva [1]; o’zbek folklorshunosligida M.Jo’raev, N.Rahmonov, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov,

O.Qayumov [2] va boshqa qator olimlarning mifologik obrazlar xususiyatlari, ilk mifologik obrazlarning g'ayritabiiy xususiyatlarni ifodalashi va ramziy obrazlarga aylanishi kabi bir qator jarayonlar haqidagi qarashlari e'tiborga sazovor. Xususan, Sh.Turdimov o'zbek xalq qo'shiqlaridagi ramziy obrazlarning miflar bilan bog'liq tomonlarini yoritgan bo'lsa, J.Eshonqulov tush va mif munosabatini tahlil qilgan ekan, g'ayritabiiylikning asosi mifda ekaniga ishora qiladi. O.Qayumov barcha shomon afsonalari uchun mushtarak bo'lgan motiv mifologik obraz tomonidan epik qahramonga homiylik motivini paydo qilishi haqida to'xtaladi. Umuman, mazkur tadqiqotlar insoniyat ilk badiiy tafakkurini anglash mezonlarini shakllantirishda muhim manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada so'z yuritilgan masalalarni tadqiq etishda o'zbek va jahon folklorshunoslarining qadimgi turkiy adabiyot to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlariga suyanildi. Ushbu kichik tadqiqot ishini yoritishda qiyosiy-tarixiy, etnofolkloristik, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugun biz anglab tushunadigan „tabiat“ni inson ibtidoiy davrda juda yaqindan his qilgan, tabiat qonuniyatlarini o'ziga xos tarzda anglab yetgan. Soddaroq qilib aytganda, tabiat hodisalari bilan o'zi o'rtasidagi bog'liqlik mavjud deb bilgani holda, tabiatni aynan o'z xatti-harakatlariga ko'chiravergan. Faqat inson o'ziga tegishli bo'lgan, o'zi istagan narsaga munosabatini bildirgan. Azaldan inson va tabiatning o'zaro uyg'unligi, insoniyat tomonidan tabiiy olamning real holatda qabul qilingani „inson + tabiiy olam“ tushunchasini bir nuqtada qarashga sabab bo'ldi. Fikrimizning dalili uchun Qayumars afsonasiga murojaat etaylik.

Qayumars haqida Beruniyning „O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarida batafsil ma'lumot beriladi. „[Eronliklar] olamning boshlanishi, Axraman, ya'ni iblisning xudo olamni fikr qilib, unga ajablanganidan tug'ilishi va Qayumars haqida ko'plab ajoyib gaplar aytganlar. [Ular shunday deydi]: tangri Axraman ishi xususida hayron bo'lib peshonasi terladi, u terni sidirib tashlagan edi, undan Qayumars paydo bo'ldi. Tangri uni Axramanga qarshi yubordi, u Axramanni yengib

minib oldi va uning [ustida] olamni aylantirishga tushdi. Nihoyat, Axraman Qayumarsdan eng yomon ko‘radigan va eng qo‘rqinchli narsasini so‘radi. Qayumars unga jahannam darvozasiga yetganda qattiq qo‘rqishini aytdi. Axraman [jahannam darvozasiga] yetgach, hiyla qilib o‘ynoqlay boshladi, oxir Qayumars uning ustidan yiqilib tushdi. Axraman uning ustiga chiqib oldi va Qayumarsdan: „Qaysi tomoningdan yeyishga boshlay?“ – deb so‘radi. Qayumars o‘zining aytganiga Axramanning muxolif bo‘lishini bilib: „Oyoq tomondan yeyishga boshlagin, olam husnini bir muddat ko‘rib turay“, – dedi. Axraman uni bosh tomondan yeyishga boshlab, moyagiga va erlik urug‘i idishi (turadigan) joyga yetganda, undan ikki tomchi erlik suvi yerga tom-di-da, yerdan ikki tup rovoch ko‘karib chiqdi va rovochlar o‘rtasida Misho va Mishona tug‘ildi. Bu ikkisi [eronliklar nazdida] Odam va Havo o‘rnida bo‘lib, ularni Malhiy va Malhiyona ham deydilar. Xorazm otashparastlari ularni Mard va Mardona deb ataydilar». [3, 127-128] Bu afsonaviy shaxsning turli tarixiy manbalardagi bayoni to‘g‘risida Beruniy chuqur tahlillar olib borar ekan, Qayumars tarixi haqida Abu Hasan Ozarxur, Muhammad al-Balxiy va boshqa qator Eron manbalaridagi ma‘lumotlarni solishtiradi, yer yuzidagi birinchi inson sifatida ko‘rsatib, uning yaratilishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar qanchalik aniq yoki o‘zgacha ekanligi haqida aytadi. Beruniy keltirgan turli manbalarda Qayumars goh «Gilshoh» (balchiq shoh), goh «Girshoh» (tog‘ shohi) deb talqin qilinadi. [3, 127-128]

Qayumars haqidagi afsona Xorazm zaminida ham yoyilgan bo‘lib, mashhur arxeolog S.P.Tolstovning bu haqdagi kuzatishlari diqqatga sazovordir. S.P.Tolstov „Avesto“dagi va pahlaviy afsonalaridagi Ayryanem-vejo bilan bog‘liq bir qator an‘analarga diqqatni jalb qiladi. Ayryanem-vejo – „Qayumars“ ismining qadimgi pahlaviy va „Avesto“dagi nomidir. S.P.Tolstov Xo‘jayli yaqinidagi Jo‘mart qassob degan tepalikni ana shu Ayryanem-vejo, ya‘ni Qayumars bilan bog‘laydi. Olim Jo‘mart qassob tepaligi atrofidagi joy nomlari va kishi ismlarini bir-biriga bog‘liqlikda olib qarab, Tavrotdagi Shimsho‘n, Sif kabi qahramonlarni ham Qayumars bilan aloqador deb biladi va shunday xulosaga keladi: „Shubhasiz, bu yodgorlik va xarobalar kompleksi qadimgi Eron afsonaviy qahramoni Gavomard –

Qayumars (Jumart, Jumurt) bilan bog‘liqdir. Bu qahramon Ayryanem-vejoda buqa bilan assotsiatsiya qilinadi. (K.V.Treverning fikricha, *Gavomart* so‘zi „buqa-odam“ degan ma‘noni bildiradi; buqa uning yo‘ldoshi bo‘lgan)“ [8, 95].

N.M.Mallaev ham Qayumarsning g‘ayritabiiy qiyofasi to‘g‘risida K.V.Trevera hamohang fikrni aytgan [5, 48-49].

Turk-mo‘g‘ul va sayan-oltoy mifologiyasida Erklik obrazi ham keng tarqalgan. U o‘liklar diyori hukmdori, narigi olamning oliy hakami, iblis, demiurg yoki demiurg yaratgan ilk jonli mavjudot. Bu ism „Oltin yorug“da buddaviylik aqidasi homiysi, bu aqidaning yoyuvchisi sifatida talqin qilinadi va Erklik xoqon deb ham nomlanib, „qudratli hukmdor“ ma‘nosini bildiradi. Buddaviylik afsonalariga ko‘ra, o‘tmishda Erklik ruhoniy bo‘lgan va avliyolikning eng yuqori darajasiga erishgan. Ammo u o‘g‘irlikda ayblanib, yo qatl qilingan yoki talonchilarning jinoyatlariga beixtiyor guvoh bo‘lgan. Shu sababdan o‘sha jinoyatchilar tomonidan o‘ldirilgan. Erklik xoqonning boshi olingan bo‘lsa ham, tanasi tirikligicha qolgan va boshi o‘rniga ho‘kizning kallasini o‘rnatib olgan. Oqibatda u qo‘rqinchli va halokatga olib boruvchi iblisga aylanib qolgan. Uni „o‘lim g‘olibi“ Yamandag (sanskritcha *Yamandaga*) o‘g‘irlab, yer osti olamiga jo‘natib yuborgan. Erklik yer osti olamida o‘sha olamning hukmdori va hakami vazifasida bo‘lgan. Mo‘g‘ulistonda Erklik va Yamantaka bir xilda tasvirlanadi.

„Oltin yorug“da hikoya qilinishicha, Ku tay vafot etganda, uning olamda qilgan gunohlari – qizining to‘yida hayvonlarni so‘yib, qurbonlik qilgani uchun, narigi olamga Erklik xonning huzuriga uni to‘rtta ruh hukmga olib boradi. „*Ey inson! Sen issiq jon(ini) olganlardan o‘ttizdan ortig‘i – bog‘langan, ushlangan jonzotlar alohida qudratli Erklig xonning qarshisida dushmanlik ko‘zini chaqchaytirib, o‘sha ko‘zlari bilan seni kutib tururlar. Qachon u yerga borsang, Erklig xon juda qattiq qiynab o‘ldirilganlarning qattiq qonuni ostida ... u yerdagi og‘ir (azoblardan) qutulmagaysan*“, *deya so‘zladilar*“. Bundan keyingi voqealar o‘z oqimi bilan davom etadi: Ku tay qilgan gunohlari uchun tavba qilib, „*Oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, hamma (narsa)dan ustun turadigan no‘m podshohi nomli no‘m bitigi*“ni ko‘chirish uchun Erklik xonga va‘da beradi va tiriladi.

„Oltin yorug“da Erklik xonning g‘ayritabiiy qiyofasi tasvirlanmaydi yoki bu haqda ishora ham yo‘q. Buning sababi shuki, Erklik xon haqidagi turk-mo‘g‘ul afsonalarida uning g‘ayritabiiy qiyofasi saqlanib qolgan. „Oltin yorug“dan keltirilgan afsonadan ma‘lum bo‘lishicha, u o‘lim xudosi emas, balki jonzotlarni asraydigan, gunohlari uchun jonzotlarni tavbaga olib keladigan yer osti olami xudosidir.

Erklik xonning ho‘kiz boshli qiyofada tasvirlanishi totemizmning mahsuli o‘laroq yuzaga kelganligini shu o‘rinda takrorlash lozim. Totemizm Markaziy Osiyoda eng qadimgi kult sifatida mavjud. Erklik xonning ho‘kiz kallasi tasviridan boshlab uning yer osti olamida jamiki jonzotlarni himoya qiluvchi xudo ekaniga oid afsonalarga qadar totemistik miqlarning izlari ko‘rinadi. Garchi totemistik mif Erklik xon bilan bog‘liq afsonada yarq etib ko‘rinmasa ham, totemizmning qoldiqlari borligini e‘tirof etishimiz kerak. Zotan, «totemistik miqlar o‘zida fantastik totemistik ajdodlar haqidagi afsonalarni gavdalantiradi» va mazkur miqlarda «odatda, bu ajdodlarning sayohatlari to‘g‘risida hikoya qilinadi (ular, ko‘pincha, zooantromorfik mavjudotlar sifatida tasvirlanadi, ammo mifda inson haqida so‘z ketyaptimi yoki jonzotlar haqida so‘z ketyaptimi – mifning mazmunidan bu anglashilmaydi)». [7, 522] Agar totemistik miqlarning ana shu qonuniyati va xususiyatidan kelib chiqilsa va shu nuqtayi nazardan yondashilsa, „ho‘kiz boshli“ Erklik xon to‘g‘risidagi afsonada ham qadimgi turk-mo‘g‘ul totemistik miqlari yotadi.

Gap ho‘kiz bilan bog‘liq totemistik miqlar to‘g‘risida ketayotgani uchun Qayumarsning yarmi inson va yarmi ho‘kiz qiyofasi to‘g‘risida eslatgan holda, bu jonzotning Sharq xalqlari mifologiyasidagi roli to‘g‘risida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Shundan so‘nggina mifologik fikrlashning va bu mifologik obrazning mohiyati ochiladi. Qadimgi shumer, misr va boshqa bir qator sharq xalqlarida ho‘kiz mifologik obrazi uchraydi. Bu xalqlarning mifologik tasavvuriga ko‘ra, ho‘kiz xudoning zamindagi tajassumiga va uning atributlariga mos keladi. Miloddan oldingi III-II ming yilliklarda O‘rta Osiyoda, xususan, Turonzaminda, qadimgi eron va hind mifologiyasida ho‘kiz, birinchi navbatda, Oy tangrisining timsoli edi. Xususan, Eron mifologiyasida oy „ho‘kiz urug‘iga ega bo‘lgan“ deb, shumer va

akkad xalqlarida esa oy tangrisi Sin ko‘k soqolli ho‘kiz sifatida tasavvur qilingan. Shumerlarning „Gilgamish va samoviy ho‘kiz“ qo‘shig‘ida ma‘buda Innin, o‘zining sevgisiga javob bermagan Gilgamishdan achchiqlanib, xudolar samoviy ho‘kiz yaratsin va men uchun Gilgamishdan qasos olsin, deb kurashadi va maqsadiga erishadi. O‘sha ho‘kiz osmondan Evfrat daryosiga tushib, daryo suvini ichib qo‘yadi. Gilgamish esa ho‘kizni mag‘lub qiladi (shumerlar davridan bizgacha yetib kelgan suratlarda qahramonning odamsimon ho‘kizga o‘xshash maxluq bilan olishuv lavhalari tasvirlangan). Shu o‘rinda yarmi buqa va yarmi inson Qayumarsning Axriman tomonidan o‘ldirilganini eslatib o‘tmoqchi edik. Bu singari sujetlar krit, yunon, ugarit xalqlarining qadimgi miflarida ham bor bo‘lib, ular asosan ho‘kiz bilan olishuvga oid udumlar bilan bog‘langan. [6, 203]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umuman, ho‘kiz bilan bog‘liq sujetlar va tasvirlarning maqsadi turlicha – qaysidir xalqda yovuz kuchlar timsoli sifatida tasvirlangan bo‘lsa, boshqa xalqda tangri timsoli sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu tasvirni ma‘no jihatdan guruhlariga ajratishda ayni ana shu xususiyatlariga tayanamiz. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, Rim imperiyasi davrida butun Sharqiy va G‘arbiy Yevropada, Yaqin Sharqda, xullas, qayerda rim armiyasi qarorgoh o‘rnatgan bo‘lsa, o‘sha joylarda ibodatxonalar qurilgan, bu ibodatxonalarda xanjar bilan ho‘kizni o‘ldirayotgan Mitra tasvirlangan barelef yoki haykal asosiy o‘rinda turgan. Bu ho‘kizni Axuramazda birinchi qurbonlik qilinadigan jonzot sifatida yaratgan edi. [4, 143]

Ho‘kiz obrazi o‘zida tangri timsolini ham mujassamlantirishi jihatidan yaqin bo‘lgani uchun, Qayumars, Erklik xon va eron mifologiyasidagi ho‘kiz timsoli zoontromorfik xususiyatlarga egadir. Ho‘kiz timsolining ibtidosi O‘rta Osiyo va Eron xalqlarida tangri, ya‘ni ma‘buda bilan bog‘liq ekan, buning asoslari bu o‘lkalardagi diniy oqimlarning umumiylikiga tayanadi.

Adabiyotlar:

1. Фрэзер Дж. Золотая ветвь: Исследование магии и религии // Пер. с англ. М. К. Рыклина. – М.: ТЕПРА-Книжный клуб, 2001. – С. 528; Фрейденберг О.М.



Миф и литература древности. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1978. – С. 800; Пропп В.Я. Морфология волшебной сказки, – М.: Лабиринт, 1998. – С. 144; Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1976. – С. 407-408; Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ / Исследования в области мифопоэтического. – М.: Директ-Медиа, 2007. – С. 624; Стеблева И.В. Очерки турецкой мифологии. – М.: Восточная литература, 2002. – С. 102

2. Jo‘raev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B. 183; Jo‘raev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak: Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014; Rahmonov N. Inson ruhining sadosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1986. – B. 24; Turdimov Sh. O‘zbek xalq qo‘shiqklarida ramz: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1986. – B. 24; Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Filol. fanlari dokt. diss. avtoref. –Toshkent, 2010. – B. 19.

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968.

4. Кузнецов Б.И. Бон и маздаизм. Евразия, Санкт-Петербург, 2001.

5. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1965.

4. Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 1. – Москва, 1992.

5. Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 2. – Москва, 1992.

8. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab... – Toshkent: Fan, 1964.